

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHKILOTCHILIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayev Erkin Satavaldiyevich

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning tashkilotchilik kompetentsiyasini rivojlantirish doir ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, kompetentlik tushunchasi, kasb faoliyatidagi ahamiyati, faoliyat jarayonidagi zaruriy ko'nikma ekanligi haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, bilim, malaka, o'qituvchi, kompetentlik, kompetensiya.

РАЗВИТИЕ ОРГАНИЗАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация: В статье представлены сведения о развитии организационной компетентности будущих учителей на основе аксиологических подходов. Также даны теоретические сведения о понятии компетентности, ее значении в профессиональной деятельности, а также ее значении как необходимого навыка в процессе деятельности.

Ключевые слова: образование, знания, умения, учитель, компетентность, компетентность.

DEVELOPMENT OF ORGANIZATIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF AXIOLOGICAL APPROACHES

Abstract: The article presents information on the development of organizational competence of future teachers on the basis of axiological approaches. Also, theoretical information is provided on the concept of competence, its importance in professional activity, and its necessary skills in the process of activity.

Keywords: education, knowledge, qualification, teacher, competence, competence.

Kirish. Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilayapti. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini

mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib va kengaytirib borishni talab etadi. Ta’lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta’lim tizimida texnologik ta’limi o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli, zamonaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o‘quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida texnologik ta’limi o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi. Shu munosabat bilan texnologik ta’lim o‘qituvchilarini oliy ta’lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta’minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarda amalda bo‘lgan ta’lim mazmunini bevosita o‘rganishi shuni ko‘rsatdiki, G‘arb mamlakatlarida asosiy o‘rinni mutaxassisning kompetentlik malaka darajasi egallaydi. Respublikamizning milliy ta’lim tizimi mohiyatiga ko‘ra ta’lim mazmunining minimal talablari bilim, ko‘nikma va malakaga asoslanadi. Agarda «kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik taxliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin. Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.[1]. Kompetensiya bu - bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko‘rinishi[2.26].

Olimlarning fikriga ko‘ra, “kompetensiya” shaxs mukammal biladigan predmet - soha bo‘lib, uning faoliyat ko‘rsatishi uchun tayyor ekanligi hisoblanadi. “Kompetentlik” tushunchasini esa undan farqli o‘laroq, shaxsning yo‘nalitirilgan tasnifi, bitiruvchining ma’lum sohada faoliyat ko‘rsata olish ko‘nikmasi ekanligini ta’kidlaydilar.

Har bir davlat o‘zining taraqqiyot yo‘lini belgilashida jahon tajribasidan o‘tgan innovasion texnologiyalar asosida ilmiy izlanishlar, zamonaviy o‘zgarishlar, milliy yangiliklarni yaratishga qaratildi. Jamiyatda har bir shaxsning g‘oya va qarashlarini innovasion texnologiyalar asosida yangi bosqichga olib chiqish, ayniqsa, ta’limning samaradorligiga erishishda xalqimizning ma’naviyatiga tayanish o‘zining ijobiy natijalarini beradi. Jahonda kundan-kunga yangidan-yangi g‘oyalar kuchayib borishi har bir fuqaroning jamiyatda milliy tafakkurini o‘zgartirmoqda, ta’limga bo‘lgan e’tibor va qadr-qimmat yuqori darajaga ko‘tarilmoqda. Bu esa, tizimni falsafiy tafakkur negizida rivojlantirish uchun jamiyat taraqqiyotida muhim hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Yurtimizda innovasion texnologiyalar uchun ajratilayotgan mablag‘lar katta bo‘lib, bu xarajatlarning maqsadli bo‘lishi yoshlar egallayotgan bilim darajalari bilan baholanib, ularning ertangi kunini belgilashda xizmat qilayotgan minglab ziyolilar borligi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda innovatsion infrastrukturani yanada boyitish, intellektual salohiyatni yuqori pog‘onaga ko‘tarish va sohani keng ko‘lamda amalga oshirish borasida bir qator vazifalardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, har bir sohani o‘qitishga

doir ta’lim standartlarini yangilash asosida zamonaviy bilim beradigan dasturlarni ishlab chiqarish va ta’limning so‘nggi innovasion texnologiyalari yutuqlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, ta’limdagi barcha o‘zgarishlarning istiqbolga qaratilgan milliy va xalqaro tizimlarini yaratish orqali yoshlarning faolligini jamiyatda kuchaytirish hamda tizimga kirib borishiga qaratilgan islohotlarni ko‘paytirish kerak. Uchinchidan, maktablarni tugatayotgan bitiruvchilarni ish bilan ta’minlashga qaratilgan kichik mutaxassislar tayyorlash tizimini shakllantirish lozim. To‘rtinchidan, innovasion texnologiyalar asosida ta’limni boyitish va xorijiy tajribalarga asoslanib, milliy ta’lim tizimini rivojlantirish kerak.

Innovasion texnologiyalardan samarali foydalanishda har bir ta’lim beruvchi avvalo o‘zining sohasini mutaxassisi, ilmiy bilimlar sohibi bo‘lishi yashi natija beradi. “Bunda kishilar turli texnologik, innovasion loyihalar, kashfiyotlarni hayotga tatbiq etishi muhim bo‘lib, bu orqali ular mamlakatimizning jahon siyosiy va iqtisodiy jarayonlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga ko‘maklashadi”. Biz yosh avlodning ongida ta’limning so‘nggi yutuqlariga intilish tuyg‘usini jonlantirishimiz, milliy siyosatimizda innovasion texnologiyalardan ezgu maqsadlar yo‘lida foydalanishimiz joizdir. Ta’limning barcha bo‘g‘inlarida zamonaviy kadrlar tayyorlash masalasiga yangicha falsafiy yondashuv va shu asosda yoshlardan yangi g‘oyalar va texnologiyalar yaratishga qodir mutaxassislarni tayyorlash o‘zining dolzarbligini namoyon qilmoqda. Barchamiz bu yaratilgan imkoniyatlarning asl mohiyati yoshlarning taqdiri bilan parallel jarayonligini, ilmiy salohiyatning mohiyati chuqurligini bilishimiz kerak.

Bugun ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida yaratilayotgan yangi g‘oyalar, fundamental ilmiy ishlanmalar, milliy brend ostidagi innovasiyalar, intellektual imkoniyatlarning barchasi yoshlarning ertangi kelajagi uchun xizmat qilishga qaratilgan. Ulardan ta’lim olayotgan yoshlarimiz samarali foydalanishlari, jamiyatdagi islohotlarni yanada jadallashtirishda o‘zlarining hissalarini qo‘shishlari lozim.

O‘zbekistonga o‘zining ijtimoiy taraqqiyotdan kelib chiqqan holda yoshlarda iqtisodiy faollikni kuchaytirishga doir innovasion usullar kirib keldi. Shuningdek, mentalitet omilidan kelib chiqib, innovasion faollikni shakllantirish borasida barqaror ta’lim siyosatini amalga oshirish barchaning ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2018 yil 7 mayda qabul qilingan “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovasiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorga muvofiq, oliy ta’lim muassasalarining tuzilmasi negizida innovasion jamg‘armalarning faoliyatini kuchaytirish va turli ilmiy ishlanmalar, startaplarning jamiyatda ko‘payishiga doir jarayonlarga dunyoviylik bilan yondashilmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida “ilmiy-innovasion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘yicha bo‘linmalari oldiga quyidagi maqsadlar qo‘yilgan:

- bozorni tizimli ravishda tahlil qilish va innovasion mahsulot (ish, xizmat)larga bo‘lgan talabni o‘rganish, o‘zini qoplash muddatini, rentabellik va innovasion mahsulotlarni tijoratlashtirish bilan bog‘liq xatarlarni baholash;

- yuqori tijorat salohiyatiga ega va amalga oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zlashtirish uchun istiqbolli loyihalarni tanlab olish;
- innovasion loyihalarni amalga oshirish uchun investorlar, sheriklar va boshqa manfaatdor shaxslarni jalb qilish;
- yangi texnologiyalarni joriy qilish va innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida sanoat korxonalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish”.

Biz jamiyatda barqaror iqtisodiyotni ta’minlab, uning negizida yangi O‘zbekistonning ertasini yorug‘ qiladigan innovasion tafakkurli yoshlarni tarbiyalashimiz, ularning ongida farovonlik garovi bo‘lgan ta’limga e’tiborni yuqori darajaga ko‘tarishimiz lozim. Ta’limdagi o‘zgarishlar asosan innovasion texnologiyalar ko‘rinishidagi usullardan foydalanishda o‘zining yaxshi samarasini beradi. Shuning uchun ham barchamiz ta’limga alohida davlat siyosati darajasida qarab, uning ravnaqiga o‘zimizning hissamizni qo‘shishimiz kerak bo‘ladi.

Yuqoridagi masala bo‘yicha izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar “ta’lim jarayonida innovasion metodlarni qo‘llash orqali talabada quyidagi kompetensiyalar shakllanishiga qarab bu texnologiyalarni baholash mumkinligini ilgari suradilar”.

1. Operasion kompetensiya – talaba informatsiya bilan mustaqil ishlay oladi. Kompyuter texnologiyasining interaktiv imkoniyatlaridan samarali foydalana oladi va provardida talabaning faolligi oshib motivatsiya shakllanadi.

2. Kognitiv kompetensiya bilim shakllanadi, bilimlarini tartibga solib tizimlashtiradi. Talaba bajargan ishini o‘zi mustaqil analiz qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

3. Kommunikativ kompetensiya muloqot qilish malakasini shakllantiradi.

4. O‘zini-o‘zi takomillashtirish kompetensiyasi. Mustaqil ishlash orqali talaba nafaqat o‘rganadigan materialini analiz qila olishi shu bilan birga shu jarayon bilan bog‘liq o‘zini hatti-harakatlarini analiz qila olishi muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, oliy ta’limda innovasion ta’lim texnologiyalar fan va informasion texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga asoslanadi. Ular talabaning ijodiy qobiliyati va mustaqil ta’lim olish malakasini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning tashkilotchilik kompetentsiyasini rivojlantirish, ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va o‘quv jarayonini yanada sifatli qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Tashkilotchilik kompetentsiyasi, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularni motivatsiya qilish, hamda ta’lim jarayonini rejalashtirish va boshqarish qobiliyatidir.

Tashkilotchilik kompetentsiyasi - bu shaxsning o‘z faoliyatini samarali boshqarish, jamoa bilan ishlash, muammolarni hal etish va innovatsiyalarni joriy etish qobiliyatidir. O‘qituvchilar uchun bu kompetentsiya o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ta’lim berishda, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishda va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhimdir.

Tashkilotchilik kompetentsiyasining ahamiyati:

1. O‘quv jarayonini samarali boshqarish: O‘qituvchilar o‘z darslarini rejalashtirish va boshqarish orqali o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi. Bu esa o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

2. Jamoaviy ishlash qobiliyati: Tashkilotchilik kompetentsiyasi o‘qituvchilarga jamoaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etishga imkon beradi. Bu esa ta'lim muassasalari ichida hamkorlikni kuchaytiradi.

3. Innovatsiyalarni joriy etish: Yangi pedagogik usullar va texnologiyalarni joriy etish uchun tashkilotchilik kompetentsiyasi zarur. Bu orqali o‘qituvchilar o‘z darslarini yangilab borishlari mumkin.

4. O‘quvchilarni motivatsiya qilish: O‘qituvchilar o‘zlarining tashkilotchilik qobiliyatlari orqali o‘quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishi va motivatsiya qilishi mumkin.

Tashkilotchilik kompetentsiyasini rivojlantirish usullari.

1. Tajriba orttirish: Bo‘lajak o‘qituvchilarga tajribali o‘qituvchilar bilan birga ishlash imkoniyatini berish, ularning tashkilotchilik kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotlar va seminarlar orqali tajribalarni almashish samarali bo‘ladi.

2. Treninglar va seminarlar: O‘qituvchilar uchun tashkil etiladigan treninglar va seminarlar, ularning ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu tadbirlar davomida turli xil usullar va strategiyalarni o‘rganish mumkin.

3. Loyihalar bilan ishlash: O‘qituvchilarga loyihalar ustida ishlash imkoniyatini berish, ularning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Loyihalar orqali jamoa bilan ishlash, muammolarni hal etish va innovatsiyalarni joriy etish ko‘nikmalari shakllanadi.

4. Mentorlik dasturlari: Tajribali o‘qituvchilar tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarga mentorlik qilish, ularning tashkilotchilik kompetentsiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mentorlar yangi o‘qituvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ularga yordam berishi mumkin.

5. O‘z-o‘zini baholash: O‘qituvchilarni o‘z faoliyatlarini baholashga undash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayon o‘z-o‘zini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarning tashkilotchilik kompetentsiyasini rivojlantirish ta'lim tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun juda muhimdir. Tashkilotchilik kompetentsiyasi nafaqat o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi, balki o‘quvchilarning ta'lim olish jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ham zarurdir. Ushbu maqolada keltirilgan usullar va strategiyalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilar tashkilotchilik kompetentsiyalarini oshirishlari mumkin, bu esa ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiya - bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko‘rinishi [3.26] hisoblanib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma’lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin bo‘lgan faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, subyektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyatida yuzaga chiqadi.

Umuman, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan, kasb sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofda obyektlar va subyektlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha muayyan malakalar hamda kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasidir. Kompetentlikning shakllanganligi borasida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.
2. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo‘llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. <http://www.edu.uz/>.
5. <http://www.ziyonet.uz/>.